


**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM  
VAZIRLIGI  
AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

Ro‘yxatga olingan:  
№ BD-5111200-2.09  
«5» 09 2019



**JAHON ADABIYOTI**

fani bo‘yicha  
2-kurs talabalari uchun

**ISHCHI O‘QUV DASTURI**

Bilim sohasi:	100000 – Ta‘lim
Ta‘lim sohasi:	110000 - Pedagogika
Ta‘lim yo‘nalishi:	5111200 – O‘zbek tili va adabiyoti

**Nukus – 2019**

Fanning ishchi o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi ning 2016- yil 25-avgustdagi 355- sonli buyrug'ining 2-ilovasi bilan tasdiqlangan namunaviy o'quv dasturi asosida ishlab chiqildi.

5111200 – o'zbek tili va adabiyoti bakalavr ta'lim yo'nalishi o'quv dasturi va o'quv rejasiga muvofiq ishlab chiqildi.

**Tuzuvchilar:**

S.Matyakupov – Nukus DPI O'zbek adabiyoti kafedrasida dotsenti,  
filologiya fanlari nomzodi.

H.Allambergenov – Nukus DPI O'zbek adabiyoti kafedrasida katta o'qituvchisi,  
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

**Taqrizchi:**

K.Quramboyev – Nukus DPI O'zbek adabiyoti kafedrasida professori,  
filologiya fanlari doktori

Ishchi o'quv dasturi O'zbek adabiyoti kafedrasida majlisida muhokama qilinib,  
2019- yil 26- avgustdagi 1- sonli bayonnoma bilan tavsiya qilingan.

Kafedra mudiri:

S.Matyakupov

Fanning ishchi o'quv dasturi Turkiy tillar fakulteti kengashining 2019- yil  
30- avgustdagi 1- sonli bayonnoma bilan ma'qullandi.

Fakultet kengashi raisi:

B.Davletov

Fanning ishchi o'quv dasturi Nukus davlat pedagogika instituti O'quv-uslubiy  
kengashining 2019- yil 5 - 09 dagi 1 - sonli qarori bilan  
tasdiqlangan.

«KELISHILDI» o'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i:

A.Abdiyev

### **Fanning dolzarbligi**

„Kadrlar tayyorlash milliy dasturi“da ta’limning ijtimoiylashuvi bo’limida ko’rsatib o’tilgan talaba-yoshlarning adabiy-estetik dunyoqarashini boyitish, ularda go’zallik tuyg’ularini qaror toptirish adabiyotning tarixiy va nazariy xususiyatlarini jamiyatimizda olib borilayotgan ishlar orqali amalga oshirishga qaratilganligi bilan belgilanadi.

„Dastur“ adabiy-estetik qadriyatlarining milliy va umumbashariy jihatlarini, jahon adabiyotini o’rganishning millat hamda jamiyat ravnaqidagi o’rnini talabalarga tushuntirish, ularda badiiy asarni mukammal tushunish, tahlil va tadqiq etish malakasini hosil qilish, jamoatchilikni jahon adabiyotidagi mazmun va shakl, mavzu va g’oyaning mohiyati bilan tanishtirishga ko’maklashish, jamiyatning ma’naviy manzarasini adabiy-nazariy tafakkur orqali aks ettirish, jahon adabiyoti durdonalarini mukammal o’rganish orqali talabalarning badiiy tafakkurini takomillashtirish uchun ko’rsatmalar beradi.

„Jahon adabiyoti“ fani talabalarni jahon adabiyotining barkamol namunalari bilan tanishtirish, jahon adabiyotshunosligining ilmiy-nazariy xususiyatlarini, davrlar osha badiiy xususiyatlarning eng muhim qirralari bilan tanishtirishni maqsad qilib olgan.

### **Fanning o’quv rejadagi boshqa fanlar bilan o’zaro bog’liqligi va uslubiy jihatdan uzviyligi**

„Jahon adabiyoti“ fani umumkasbiy fanlar blokiga kiritilgan fan bo’lib, 2-kursning 2-semestrda va 3-kursning 1-semestrda o’qitiladi.

Fanning boshqa fanlar, xususan, o’zbek adabiyoti adabiyot tarixi, tilshunoslik, folklor, estetika, falsafa, psixologiya, san’atshunoslik sotsiologiya, tarix bilan uzviy bog’liqligi hamda bu kabi fanlardagi umumiy qonuniyatlar bilan aloqadorligi kuzatiladi.

### **Fanning ilm-fan, iqtisodiyot va ishlab chiqarishdagi o’rni**

„Jahon adabiyoti“ fani talabalarda ilmiy dunyoqarash va ma’naviy tafakkurni, jamiyat va inson munosabatlarini badiiy talqin etish, jahondagi adabiy jarayonlarga ongli munosabatda bo’lish ko’nikmasini shakllantiradi. „Jahon adabiyoti“ fanining nazariy-uslubiy asoslari to’g’risida bilim hosil qiladi. Shunga ko’ra fanning ijtimoiy ishlab chiqarishni tashkil qilish va boshqarishdagi o’rni muhim hisoblanadi.

### **Fanni o’qitishdagi zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar hamda o’quv mashg’ulotlarini loyihalash**

Dasturda ko’rsatilgan mavzular ma’ruza, seminar shaklida olib boriladi, shuningdek, fanning dolzarb masalalari talabalarga mustaqil ish sifatida o’zlashtirish uchun beriladi. Fan zamonaviy pedagogik texnologiyaning turli metodlari bilan o’tkaziladi. Seminar mashg’ulotlari „Aqliy hujum“, „Bumerang“, „Tarmoqlar“, „FSMU“ singari ilg’or pedagogik texnologiyalardan foydalanilgan holda olib boriladi.

### **Jahon adabiyoti fanining sillabusi**

<b>O’quv kursining to’liq nomi nomi:</b>	<b>Jahon adabiyoti</b>		
<b>Kursning qisqacha nomi:</b>	<b>JA</b>	<b>Kod: JA</b>	
<b>Kafedra:</b>	<b>O’zbek adabiyoti</b>		
<b>O’qituvchi haqida ma’lumot:</b>	Allambergenov Hamza Kamalovich	<b>O’qituvchining elektron manzili:</b> <b><u>hamza-kamal@mail.ru</u></b>	
<b>Semestr va o’quv kursining davomiyligi:</b>	<b>4- semestr</b>		
<b>O’quv soatlari hajmi:</b>	Jami:	<b>122</b>	

	ma'ruza	34	
	Seminar	34	
	mustaqil ta'lim	54	
<b>O'quv kursining statusi</b>	Umumkasbiy fanlar		
<b>Dastlabki tayyorgarlik:</b>	Kurs „O'zbek adabiyoti tarixi“, „O'zbek folklori“, „Mutaxassislikka kirish“ fanlaridan o'zlashtirilgan bilimlarga asoslanadi.		
<b>Yo'nalish nomi va shifri</b>	5111200	<b>O'zbek tili va adabiyoti</b>	
<p><b>Fanning predmeti va mazmuni:</b> Ushbu dastur 5111200 – O'zbek tili va adabiyoti bakalavr ta'lim yo'nalishi uchun mo'ljallangan. Mazkur dastur respublikamizda va xorijda chop etilgan jahon adabiyoti fanidan yaratilgan manbalar asosida tuzilgan.</p> <p>Mazkur dastur adabiy-estetik qadriyatlarining milliy va umumbashariy jihatlarini, jahon adabiyotini o'rganishning millat hamda jamiyat ravnaqidagi o'rnini talabalarga tushuntirish, ular da badiiy asarni mukammal tushunish, tahlil va tadqiq etish malakasini hosil qilish, jamoatchilikni jahon adabiyotidagi mazmun va shakl, mavzu va g'oyaning mohiyati bilan tanishtirishga ko'maklashish, jamiyatning ma'naviy manzarasini adabiy-nazariy tafakkur orqali aks ettirish, jahon adabiyoti durdonalarini mukammal o'rganish orqali talabalarining badiiy tafakkurini takomillashtirish uchun ko'rsatmalar beradi.</p>			
<p><b>Fanni o'qitishdan maqsad:</b> Mazkur fanni o'qitishning bosh maqsadi jahon adabiyotining muhim poetik-estetik qirralarini mujassam qilgan adabiy asarlarni o'rganish orqali badiiy-falsafiy qarashlardagi nazariy-badiiy evolutsiyani ko'rsatib berish hamda badiiy adabiyot tarixi va adabiy-nazariy tafakkur tadrijining shaxs va jamiyat hayotidagi o'rni va ahamiyatini ochib berish, talabalarining adabiy-estetik tafakkurini yuksaltirish, ilmiy mushohadaning vujudga kelishi hamda nazariy jihatdan tahlil qilish va talqin ko'nikmalarini hosil qilish, faol ijodkorlik ruhi va mas'uliyatini shakllantirishdan iborat.</p> <p><b>Fanning vazifasi:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>– jahon adabiyoti namunalarining o'ziga xos, milliy va umuminsoniy xususiyatlarini ilmiy tahlil qilish asosida talabalarga bilim berish;</li> <li>– talabalarga yuksak saviyada yaratilgan badiiy adabiyot namunalarining bashariyat, millat va jamiyat ravnaqidagi o'rni va ahamiyatini tushuntirish;</li> <li>– talabalarda badiiy adabiyotni tushunish ko'nikmalarini shakllantirish;</li> <li>– talabalarda badiiy asarni idrok qilish hamda uni filologik nuqtayi nazardan tahlil va tadqiq etish malakasini hosil qilish;</li> <li>– talabalarni adabiyot va inson o'rtasidagi munosabatni badiiylilik qonuniyatlari asosida tahlil qilishga o'rgatish;</li> <li>– jahon adabiyotida yangi shakllanayotgan va ommalashayotgan adabiy hamda ilmiy metod va yo'nalishlar mohiyatini jamoatchilik fikriga tayangan holda talabalarga yetkazish;</li> <li>– jahon adabiyotidagi milliy va umuminsoniy adabiy-nazariy an'analarni jamiyat hayotiga tatbiq etish orqali talabalarda adabiy-estetik tasavvur hosil qilish;</li> <li>– talabalarda yuksak saviyada yaratilgan badiiy adabiyot namunalarini nazariy, amaliy jihatdan talqin va tahlil qilish ko'nikmalarini hosil qilish;</li> <li>– badiiy adabiyotga jamiyat tarixi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, insonni ezgulik va ma'naviy barkamollikka boshlovchi g'oyalar hamda inson ruhiyatiga aloqador eng pok tuyg'ular va kechinmalar in'ikosi sifatida munosabatda bo'lish, shuningdek, jahon adabiyoti namunalarini adabiy-estetik hamda ilmiy-nazariy tahlil va talqin qilishda faol ijodkorlik ruhi va mas'uliyati malakalarini hosil qilish.</li> </ul>			

**Fan bo'yicha talabalarning bilimi, ko'nikma, malaka va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar**

**Bakalavr:**

- jahon badiiy tafakkuri rivojida eng qadimgi adabiy manbalarning o'rni;
- jahon adabiyotidagi yirik adabiy yo'nalishlar, oqimlar;
- antik davr adabiyoti;
- o'rta asrlar adabiyoti;
- uyg'onish davri adabiyoti;
- ma'rifatparvarlik adabiyoti;
- romantizm va realizm adabiyoti;
- XIX asr oxiri va XX asr boshlari jahon adabiyoti;
- XX asr jahon adabiyotiga xos xususiyatlar;
- realizm, modernizm, postmodernizm;
- XIX asr oxiri va XX asrlarda G'arbdagi adabiy-tanqidiy fikrlar *haqida bilimga ega bo'lishi*;
- jahon adabiyotining eng yetuk namunalarini tahlil qila olish;
- o'zbek adiblari asarlarini jahon adabiyoti kontekstida o'rganish, talqin va tahlil qilish;
- o'z ilmiy-tadqiqot ishlarida jahon adabiyoti va o'zbek adabiyoti namunalarini qiyoslash va o'rinni xulosalar chiqara olish *ko'nikmasiga*;
- ilmiy va o'quv jarayoniga o'zbek adabiyoti va jahon adabiyoti namunalarini qiyoslab tatbiq eta olish *malakasiga*;
- fan bo'yicha talaba egallagan nazariy bilim, ko'nikma va malakalardan amaliy va nazariy masalalarni yechishda foydalanib, amaliyotda qo'llay olish va shaxsiy fikrlari orqali ijodkorlik qobiyatini namoyon etish *kompetensiyalariga ega bo'lishi kerak*.

<b>Ta'lim berish va o'qitish uslubi:</b>	Ma'ruza, seminar mashg'ulotlari, mustaqil ishlar (FSMU, Case-study, master klasslar)		
<b>Mustaqil ishlar:</b>	O'quv loyihalar, guruhli taqdimot, referatlar, keyslar, dokladlar, krossvordlar, esse va hokazolar		
<b>Maslahatlar va topshiriqlarni topshirish vaqti:</b>	Kunlar	Vaqt	Auditoriya
	Har juma	14:00 dan 16:00 gacha	307-auditoriya
<b>Bilimlarni baholash usullari, mezonlari, va tartibi:</b>			
<b>Baholash usullari</b>	Baholash turlari fan xususiyatidan kelib chiqqan holda so'rovlar, og'zaki savol-javob, yozma ish, test sinovlari yoki boshqa ko'rinishda o'tkazilishi mumkin.		
<b>Fan bo'yicha talabalar bilimni baholash mezonlari</b>			
<b>5 baho</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- ilmiy ishlarni tavsiflash, tahlil qilish, xulosalash ko'nikmalariga ega bo'lganligi;</li> <li>- ilmiy tadqiqot mavzusini rasmiylashtirishga doir amaliy ko'nikmalarni egallaganligi;</li> <li>- ijodiy fikrlay olish;</li> <li>- ilmiy mushohada yurita olish;</li> <li>- nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq eta olish;</li> <li>- tahlil ko'nikmasiga ega bo'lish.</li> </ul>		
<b>4 baho</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Mustaqil ilmiy mushohada yurita olish;</li> <li>- Olingan bilimlarni amalda qo'llay olish, gaplarni tahlil qila olish;</li> <li>- Ilmiy tadqiqot haqida tasavvurga ega bo'lish;</li> <li>- Ilmiy xulosalarga ega bo'lish.</li> </ul>		
<b>3 baho</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Mavzular bo'yicha tasavvurga ega bo'lish;</li> <li>- Nazariy ma'lumotlarni bilish, aytib berish;</li> </ul>		

<b>2 baho</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>– ilmiy tadqiqot haqida aniq tasavvurga ega bo‘lmaslik;</li> <li>– o‘tilgan mavzularni bilmaslik;</li> <li>– yozma savodxonlik darajasining nihoyatda pastligi.</li> </ul>
---------------	---

## **Asosiy qism**

### **Fanning nazariy mashg‘ulotlari mazmuni**

#### **1-modul. „Jahon adabiyoti“ fani predmeti va mazmuni**

“Jahon adabiyoti” fanining nomlanishi, obykti, geografik miqyosi, davrlashtirilishi.

Fanning maqsad va vazifalari. Mif va jahon adabiyoti. Mifning jahon adabiyoti tadrijidagi o‘rni. Mifologiya va mif poetikasi jahon adabiyotini o‘rganishda adabiy-nazariy, falsafiy-estetik asos sifatida.

#### Eng qadimgi xalqlar adabiyoti

Hududiy va milliy tarkibi. Shumer – Babil adabiyoti, Misr adabiyoti va uning o‘ziga xos xususiyatlari. Shumer adabiyoti jahon adabiyotining ibtidosi sifatida. Shumer adabiyoti yodgorliklarining ko‘lami va janrlari. “Gilgamish” eposi. Gilgamish – abadiy hayot izlovchi epik qahramom.

#### Qadimgi hind adabiyoti

Hind adabiyoti va uning qadimiy janrlari. Mifologiyasi, adabiy namunalari. Qadimgi Sharq xalqlari adabiyotining jahon adabiyotiga ta’siri masalasi. “Ramayana” – hind eposi haqida tushunchalar. “Maxobxorata” dostonida yirik davlatchilik, vatanparvarlik g‘oyalari. Vedalar – falsafiy-axloqiy adabiy namunalari sifatida.

#### **2-modul. Yunon adabiyotining ibtidoiy davri**

Antik adabiyot va madaniyatning tarixiy ahamiyati. Yunon mifologiyasi. Titanlar va qahramonlar to‘g‘risidagi afsonalar. Ularning yozma adabiyot taraqqiyotidagi o‘rni. Qahramonlik eposlari. Sikl dostonlar haqida tushuncha.

#### Homer ijodining jahon adabiyotidagi o‘rni

Homerning «Iliada» va «Odisseya» dostonlari. “Iliada” – jangnoma doston. “Odisseya” dostonida sarguzasht va oilaviy munosabatlar talqini. Troya urushi haqidagi rivoyatlar, ularning tarixiy va mifologik elementlari. Homer gimnlari. Homer masalasi.

#### **3-modul. Attika davri yunon adabiyoti (er. av. V-IV asrlar)**

Bu davr ijtimoiy hayotida demokratik tamoyillarning o‘rnatilishi. Dramaning paydo bo‘lishi. Qadimgi yunon teatri. Teatr tomoshalari va musobaqalari. Buyuk fojjanavislar Esxil, Sofokl ijodi.

Evripid ijodi va uning tragediyanavislik sohasidagi yangiliklari. Yunon komediyasining paydo bo‘lishi va unda Dionis marosimlarining roli. Aristofan komediyalari. Attika davri nasriy adabiyoti.

#### Yunon adabiyotida tarixiy proza va notiqlik san’ati

Tarixiy prozaning yuzaga kelishi. Gerodotning “Tarix” asari. Fukidid ijodi. Qadim Yunonistonda notiqlik san’atining paydo bo‘lishi. Notiqlik turlari. Demosfen ijodi. Platan – falsafiy proza ustasi. Aristotel va uning “Poetika” asari.

#### Ellinizm davri yunon adabiyoti

Badiiy ijodda siyosiy mavzular o‘rnini madhiyabozlik ruhidagi asarlar, dolzarb ijtimoiy muammolar o‘rnini oilaviy munosabatlar egallashi. Yangi Attika komediyasining paydo bo‘lishi va Menandr ijodi. Iskandariya she’riyati va uning asosiy xususiyatlari. Plutarx va Lukian ijodi. Yunon romanchiligi.

#### **4-modul. Rim adabiyoti.**

##### **Respublika davri Rim adabiyoti**

Rim adabiyotining taraqqiyot bosqichlari. Uning yunon adabiyoti bilan bog'liqligi. Keyingi davr Yevropa va jahon adabiyoti taraqqiyotida Rim adabiyotining o'rni. Dastlabki Rim shoirlari. Rim komediyasi: Plavt va Terensiy ijodi. Notiqlik san'ati. Sitseron ijodi. Sezar va Rim tarixi. Lukretsiyning «Buyumlar xislati» falsafiy dostoni.

##### **Avgust davri Rim adabiyoti**

Rim adabiyotining «oltin davri». Avgustning mafkura sohasidagi siyosati. Metsenat adabiy to'garagi. Vergiliy va Goratsiy Avgust davrining eng yirik shoirlari sifatida. Avgustga muxolifatdagi adabiyot va unda Ovidiyning tutgan o'rni.

#### **5-modul. O'rta asrlar adabiyoti**

Qadimgi dunyoning yemirilishi va feodal munosabatlarning yuzaga kelishi. Xristian dini va cherkov mavqeining oshib borishi. Qahramonlik eposlari. «Xildebrant haqida qo'shiq» eposi. Qadimgi kelt eposi. Skandinav xalqlari adabiyotida sagalarning o'rni. «Nibelunglar haqida qo'shiq» haqida tushunchalar.

##### **Qahramonlik eposlari**

Qahramonlik eposlarining xalqchilligi. Farntsuz qahramonlik eposi. «Roland haqida qo'shiq». «Sid haqida qo'shiq» – ispan qahramonlik eposning nodir namunasi. Provans poeziyasi. Trubadurlar lirikasi. XII-XIII asr ritsar-kurtuaz romanlari.

#### **6-modul. G'arbiy Yevrapo uyg'onish davri adabiyoti**

##### **1. Italiyada uyg'onish davri adabiyoti**

Uyg'onish davrining asosiy xususiyatlari. Italiya uyg'onish harakatining vatani sifatida. Dante Aligyeri o'rta asrlarning oxirgi va uyg'onish davrining ilk shoiri sifatida. «Ilohiy komediya» asarining mazmun-mohiyati. Petrarka va Jovanni Bokachcho ijodi. «Dekameron» va Sharq adabiyoti.

##### **2. Angliyada uyg'onish adabiyoti**

Ishlab chiqarish munosabatlarining rivojlanishi. San'at va adabiyotning gumanizm g'oyalari yoyishda asosiy qurol vazifasini bajarishi. Din va cherkovga munosabat ingliz gumanistlari uchun bosh masala ekanligi. Drama va teatrning rivojlanishi. Kristofer Marlning tarixiy mavzudagi asarlari. «Buyuk Temur» tragediyasi. Uilyam Shekspir(1564-1616) hayoti va ijodi. Shekspir masalasi. Shekspir komediyalari va ularning mavzulari. Dramaturg fojialari. Shekspir asarlarining tarixiy va tarbiyaviy ahamiyati.

#### **7-modul. 3. Fransiya va Ispaniyada uyg'onish davri adabiyoti**

Fransiyada reformatsiya harakatining boshlanishi va o'ziga xos xususiyatlari. Gumanizmning maydonga kelishi. Fransua Rable (1494-1553) ijodi. Yozuvchi ijodida gumanizm. Rablening «Gargantuya va Pantagryuel» romanida O'rta asr tartiblari, axloqi va o'qitish usulining keskin tanqid qilinishi. Ispaniyada rekonkista harakatining maydonga kelishi va gumanistik dunyoqarashning shakllana borishi. Migel de Servantes Saavedra (1547-1616) ijodi. Adib ijodida gumanistik dunyoqarashning ifodalanishi. «Don Kixot» romani. Asarning xalqchilligi. Don Kixot va Sancho Pansa obrazlari. Meteforik ramzlar, turli ma'nolar.

#### **8-modul. XVII asr klassitsizm adabiyoti**

Siyosiy vaziyat va adabiy oqimlar. Klassitsizmning kelib chiqishi va asosiy prinsiplari. Go'zallik haqidagi tushuncha. Antik dunyoga munosabat va taqlid. Adiblar oldiga qo'ygan talablari. «Yuksak» va «tuban» janrlar. Uch birlik qonuni. Nikola Bualo (1636-1711) klassitsizm adabiy oqimining nazariyotchisi sifatida.

Jan Batist Poklen-Molyer (1622-1673) ijodi. Molyer – frantsuz milliy teatrining asoschisi va fransuz klassik komediyasining ijodkori. «Tartyuf», «Xasis kishi» komediyasi.

### **9-modul. Angliyada ma'rifatchilik adabiyoti**

XVIII asrda Yevropa mamlakatlarida taraqqiyparvar kuchlarning O'rta asrchilik kuchlariga qarshi kurashi. Bu kurashning siyosiy tus olishi. Adabiyotda ma'rifatchilik ruhining maydonga kelishi, ularning estetik qarashlari. Ma'rifatchilik adabiyotining asosiy xususiyatlari.

Daniyel Defo (1660-1731) hayoti va ijodi. Defoning jurnalistik faoliyati. «Robinzon Kruzo» romanining tarixiy, tarbiyaviy ahamiyati.

Jonatan Svift (1667-1745) ijodi. Adib ijodida xalq hayoti tasviri masalasi. «Gulliverning sayohatlari» asarda ingliz jamiyatining tanqid qilinishi.

Sharl Lui De Sekonda Monteskyo (1689-1755) fransuz ma'rifatparvarlik adabiyoti vakili. «Fors maktublari» epistolyar romani.

### **10-modul. Nemis ma'rifatchilik adabiyoti**

XVIII asrda Germaniyaning siyosiy va iqtisodiy ahvoli. Feodal tarqoqlikning rivojlanishga to'siq bo'lganligi. Milliy madaniyatning rivojlanishi. «Bo'ron va hujum» adabiy harakati va uning namoyandalari.

Gotxold Efraim Lessing (1729-1781) ijodi. Lessing xalqchil san'at estetikasi nazariyotchisi sifatida. «Minna fon Barnxelm», «Emiliya Galotti» pyesalari.

Fridrix Shiller (1759-1805) ijodi. Shiller – Germaniyaning buyuk shoiri va dramaturgi. «Qaroqchilar» va «Makr va muhabbat», «Orlean qizi», «Vilgelm Tell» kabi dramatik asarlarining g'oyasi va problematikasi. Shiller dramalarida realizm va romantizm.

Iogann Volfgang Hyote (1749-1832) ijodi. Hyote – olmon xalqining buyuk adibi. «Yosh Verterning iztiroblari» romanida hayotiy muammolarning tasvirlanishi. Hyote va Sharq mavzusi. «Faust» fojiasi – Gyote ijodining cho'qqisi.

### **11-modul. Romantizm adabiyoti**

XIX asr romantizm oqimining yuzaga kelish sabablari, o'ziga xos xususiyatlari. Jorj Gordon Noel Bayron (1788-1824) ijodi. Bayron – ingliz she'riyatining buyuk namoyandasi. Shoir asarlaridagi romantik ruh.

Yakob Grimm (1785-1863) va Vilgelm Grimm (1786-1858) ijodida xalq og'zaki ijodi namunalari o'rni. «Bolalar va oilaviy ertaklar» to'plami.

Skandinaviya xalqlari adabiyotida taraqqiyot. Gans Xristian Andersen (1805-1885)ning Yevropa adabiyotining rivojlanishida tutgan o'rni.

Viktor Hyugo (1802-1885) ijodi. Hyugo – romantizm adabiy oqimining nazariyotchisi sifatida. «Xo'rlanganlar», «Klod Gyo» va «Gavrosh» asarlari. «Parij. Bibi Maryam ibodatxonasi» romani. Hyugoning kishilik jamiyati haqidagi qarashlari.

### **12-modul. Fransiyada tanqidiy realizm adabiyoti**

Fransuz adabiyotida tanqidiy realizmning vujudga kelishi. Pyer Ogyusten Karon Bomarshe (1732-1799)ning ijodiy merosi. «Seviliyalik sartarosh», «Figaroning uylanishi» komediyalari.

XIX asrning 1-yarmida yuz bergan fransuz inqiloblarning badiiy adabiyotga ta'siri. Frederik Stendal (1783-1842) ijodi. «Qizil va Qora» romani davrning realistik xronikasi ekanligi. Asarning siyosiy ahamiyati.

Onore de Balzak (1799-1850) ijodi. «Insoniyat komediyasi» turkumining yaratilish tarixi. «Gorio ota», «Yevgeniya Grande», «Gobsek» asarlarida burjua axloqining va boylikka hirs qo'yishning tanqid qilinishi.

Prosper Merime (1803-1870) novellalarining fransuz tanqidiy realistik adabiyotidagi o'rni. Adib hikoyalarida real hayot va ijtimoiy masalalar talqini.

Gyustav Flober (1821-1880) ijodi. Floberning siyosiy-ijtimoiy va estetik qarashlaridagi ziddiyatlar. «Bovari xonim» romanida XIX asr Yevropa jamiyati ijtimoiy- siyosiy, estetik xomxayollarining fosh etilishi.



### **13-modul. Ingliz va nemis tanqidiy realizm adabiyoti**

XIX asrda Angliyaning iqtisodiy rivojlanishi. Chartistlar harakati va matbuoti. Valter Skott (1771-1832) - Yevropa tarixiy romanchilik maktabining asoschisi.

Charlz Dikens (1812-1870) ijodi. Dikens tanqidiy realizmning yirik vakili. «Oliver Tvistning boshidan kechirganlari» asarida bolalar tarbiyasi va boshqa ijtimoiy-siyosiy masalalarning aks etishi.

Uilyam Tekkerey (1811-1863) hayoti va ijodi. «SHuhratparastlik g'ulg'ulasi» asarida satira va hajv.

XIX asr nemis adabiyotida folklor an'alarining ommalashuvi. XIX asr 30-yillarida Germaniyada demokratik harakatlarning kuchayishi.

Haynrih Hayne (1797-1856) ijodi. Hayne – Olmoniyaning buyuk shoiri. «Qo'shiqlar kitobi» lirik to'plamining mavzusi. «Germaniya. Qish ertagi» – Haynrih ijtimoiy lirikasining cho'qqisi ekanligi.

### **14- modul. XIX asr oxiri va XX asr boshlari adabiyoti**

XIX asrning oxirgi choragi Parij Kommunasi (1871) olamshumul shuhrati bilan boshlanganligi.

Mustamlaka o'lkalarida milliy ozodlik harakatlarining kuchayishi. Urushga qarshi fikrlarning adabiyotda aks etishi. Jahon adabiyotida yangi mavzular, janrlar, adabiy oqimlarning maydonga kelishi. Tanqidiy realizm, naturalizm (tabiat), impressionizm (taassurot), simvolizm (ramziylik), ekspresionizm (ma'nodor qilib aniq ifodalash), syurrealizm (o'ta realizm), modernizm (zamonaviy) adabiy oqimlari va dekadentlik (tushkunlik) adabiyotining paydo bo'lish sabablari hamda o'ziga xos xususiyatlari.

Emil Zolya (1840-1902) hayoti va ijodi. «Rugon Makkarlar» roman epopeyasida jamiyat illatlari va oilaviy munosabatlar talqini.

Gi de Mopassan (1850-1893) ijodi. Mopassan asarlarida vatanparvarlik va insonparvarlik, sadoqat va xiyonat, nafs balosi, boylikka intilish kabi masalalarning yoritilishi. «Hayot» va «Azizim» romanlari tahlili.

Romen Rollan (1866-1944) hayoti va ijodi. Adibning turkum dramatik asarlari haqida ma'lumot. «Jan-Kristof» roman-epopeyasi.

XX asr boshlari nemis adabiyoti. Genrix Mann (1871-1950) hayoti va ijodi. Yozuvchining dastlabki asarlarida satira va hajv. «Imperiya» trilogiyasi – zo'ravonlik va shovinistlikni tanqid qiluvchi asar. «Genrix IV» tarixiy asrda ijtimoiy, diniy masalalarga munosabat.

Anna Zegers (1900-1983) ijodi. Adibning dastlabki hikoyalarida xalq hayotining badiiy talqini. «Yettinchi but» va «Barhayot o'liklar» romanlari tahlili.

Jorj Bernard Shou (1856-1950) hayoti va ijodi. Bernard Shou ijodining ingliz dramaturgiyasi rivojidadagi o'rni. «Yoqimsiz pyesalar», «Yoqimtoy pyesalar», «Puritanbop pyesalar» sikli. Shou ijodining ikkinchi davri haqida ma'lumot.

Gerbert Jorj Uelss (1866-1946) – ilmiy-fantanst yozuvchi. «Vaqt mashinasi», «Doktor Moro oroli», «Ko'rinmas odam» romanlari. Adib asarlarida ilm-fan, texnika taraqqiyotining insoniyat hayoti bilan uyg'unlashtirish masalalari. Gerbert Uelssning realistik ijodi.

### **15-modul. Amerika adabiyotining shakllanishi va taraqqiyoti**

Amerika adabiyoti taraqqiyotining o'ziga xos xususiyatlari. Amerika hikoyachilik maktabining vujudga kelishida Vashington Irving (1783-1859) ijodining o'rni. «Eskizlar kitobi», «Algambra» hikoyalar to'plamlarida yumor va satira.

Amerika romanchilik maktabining shakllanishi va taraqqiyotida Fenimor Kuper (1789-1851) ijodining o'rni. Adib romanlarining jamiyat taraqqiyotidagi roli. Davr ziddiyatlarining adabiyotda aks etishi.

Mark Tven (1835-1910) ijodi. Mark Tven – AQSHning yirik hajviyotchi adibi. «Tom Soyerning sarguzashtlari» romani Amerika bolalar adabiyotining ilk namunasi ekanligi.

Jek London (1876-1916) ijodi. Jek London mashhur realist ijodkor sifatida. «Shimol hikoyalari» turkumining yaratilishi. «Hayotga muhabbat» hikoyasining bosh g'oyasi. «Martin Iden» tarjimai hol xarakteridagi roman sifatida.

Teodor Drayzer (1871-1945) ijodi. Drayzer Amerikaning yirik realist san'atkori sifatida. «Amerika fojiasi» – adib ijodining cho'qqisi. Klayd va boshqa obrazlar orqali Amerika fojialari sabablarining ochilishi.

Ernest Heminguey (1899-1961) Xemingueyning jurnalistlik faoliyati. Urushga qarshi nafrat bilan sug'orilgan asarlari. «Alvido qurol» romani. «Chol va dengiz» qissasida tabiat va jamiyat ziddiyatlari bilan kurashda inson irodasining bukilmaligining tasvirlanishi.

Uilyam Folkner ijodiy merosi. Adib hikoya va romanlarida inson talqini. Jamiyat va shaxs muammolari.

Sidni Sheldon (1912-1998) asarlarida insoniy fazilatlar va illatlar tasviri. «Orziqib kutaman ertani» romanida shaxs inqirozi va unda jamiyat o'rni masalasi.

### **16-modul. Ekzistentsializm adabiyoti**

Ekzistentsializm adabiyotining o'ziga xos xususiyatlari. Albert Kamyu (1913-1960) ijodi. Adibning «Vabo» va «Begona» asarlari. Romanda psixologik tasvir.

Jan-Pol Sartr ijodi. «Ekzistentsializm – bu gumanizm» asarida ijodkor dunyoqarashi masalasi.

Frans Kafka ijodining ekzistentsializm adabiyotida, umuman, dunyo adabiyotida tutgan o'rni.

### **17-modul. XX asr Lotin Amerikasi adabiyoti**

Lotin Amerikasidagi davlatlarning o'z mustaqilligini qo'lga kiritishi va rivojlanish yo'liga kirib olishi.

Xorxe Luis Borxes (1899-1998) ijodining Lotin Amerikasi xalqlari adabiyotining rivojlanishida tutgan o'rni. «Marvlik tabib yoki niqobdagi bo'yoqchi» asarida Amerika muhitining tasviri.

Pablo Neruda (1904-1973) ijodi. «Ispaniya yuragimda» she'riy to'plami.

Gabriel Garsia Xose Markes (1928) ijodi. Markes jahon adabiyotining buyuk namoyandasi sifatida. «Tanholikning yuz yili» va «Buzrukning kuzi» romanlarida ramziylik.

Nobel mukofotini olgan adiblar va «Jahon adabiyoti» jurnali

Adabiyot sohasida Nobel mukofotini olgan adiblar haqida tushuncha. «Jahon adabiyoti» jurnalining xalqimiz ma'naviy ongini rivojlantirish va boyitishdagi o'rni.

### **Seminar mashg'ulot mavzulari:**

#### **1- mashg'ulot. „Gilgamish“ eposi tahlili**

„Gilgamish“ – shumerlar davri adabiyotining qadimiy yodgorligi. Eposning mazmun-mohiyati, asosiy obrazlari. Eposda mangu hayot va unga intilish g'oyalari. Gilgamish, Enkid obrazlariga tavsif.

#### **2- mashg'ulot. Hind adabiyoti.**

##### **„Ramayana“ va „Mahobxorata“ dostonlari tahlili**

Hind adabiyoti taraqqiyoti tamoyillari. Veda va vedantalar, rigvedalar haqida ma'lumot. „Ramayana“ dostonida mardlik, ishq-muhabbat va do'stlik talqini. Asar qahramonlariga tavsif. „Mahobxorata“ dostonida markazlashgan davlat tuzish g'oyasi. Dostonda ilgari surilgan umuminsoniy g'oyalar haqida tushuncha.

#### **3- mashg'ulot. Yunon adabiyoti.**

##### **Homerning „Iliada“ dostoni tahlili. „Odiseya“ – sarguzasht doston**

Homer dostonlari va madhiyalari. „Iliada“ dostonining yaratilish tarixi va tuzilishi. Doston qahramonlari. Yelena, Paris, Menelay, Axilles, Odisey va boshqa qahramonlar tavsifi. Dostonning g'oyaviy-badiiy xususiyatlari.

Doston voqealarining Troya urushiga borib taqalishi. Odisey sarguzashtlari. Bosh qahramonning aql va hiyla bilan turli vaziyatlardan chiqib ketishi. Penelopa – vafodor ayol timsoli. Ota-o'g'il, er-xotin munosabatlarining asardagi talqini. „Odiseya“ va „Alpomish“ dostonlarining qiyosiy tahlili.

#### **4- mashg'ulot. Safoklning „Shoh Edip“ tragediyasi**

Yunon adabiyoti rivojida Safokl ijodining o'rni va ahamiyati. Fiva siklidagi dostonlar. „Shoh Edip“ tragediyasining mazmun-mohiyati. Edip, Iokasta, Kreont va Tiresey obrazlariga tavsif. Fojida inson taqdiri va qismati haqidagi qarashlarning badiiy talqini.

#### **5- mashg'ulot. Vergiliy asarlari tahlili. Ovidiy – Rim adabiyotining so'nggi vakili**

Vergiliy ijodi Rim poeziyasining cho'qqisi sifatida. Shoir bukolikalari va georgikalarida inson hayoti tabiat bilan uyg'un ekanligi. „Eneida“ qahramonlik va vatanparvarlik haqidagi doston.

Ovidiy – Avgust zamonasining so'nggi vakili. Ovidiy ijodining dastlabki bosqichi. O'z davrida shoir ijodiga bo'lgan munosabatlar. „Metamarfozalar“ asarining yaratilish tarixi va tahlili.

#### **6- mashg'ulot. Dante Aligyeri ijodi. Jovanni Bokachchoning „Dekameron“ hikoyalar to'plami**

Dante ijodining dastlabki davrlari. Beatriche – shoir ilhom parisi sifatida. „Ilohiy komediya“ – Dante ijodining cho'qqisi. Dostonning tarkibiy qismlari va mavzular ko'lami. Dostonda insoniyatning buyuk allomalari tasviri. Dostonning o'zbek tilidagi tarjimai.

„Dekameron“ – gumanistik g'oyalar va voqelikni realistik tasvirlovchi asar. Novellalar kitobining mazmun-mohiyati. Bokachchoning novella janri rivojiga qo'shgan hissasi. Asardagi hikoyalarning mavzu ko'lami va obrazlar olami.

#### **7-mashg'ulot. Kristofer Marlo dramalari. Vilyam Shekspir ijodi**

Kristofer Marloning ijod yo'li. Adib ijodida shaxs va jamiyat masalalarining yoritilishi. „Buyuk Temur“ dramasi yaratilish tarixi. Amir Temur obrazining yaratilish sabablari. Asardagi tarixiy va to'qima obrazlar tizimi. Jahon adabiyotida Amir Temur obrazi.

Shekspir – ingliz uyg'onish davri adabiyotining yirik namoyandasi. Adabiy faoliyati va davrlashtirilishi. Shekspir tragediyalari. „Hamlet“ tragediyasida personajlar ichki dunyosi va psixologiyasi talqini. Fojia qahramonlariga tavsif. Shekspir asarlarining tarjimalari haqida ma'lumot.

#### **8- mashg'ulot. Migel de Servantes ijodi. Jan Batist Molyer ijodi**

Servantes – ispan uyg'onish davri adabiyotining yetuk namoyandasi sifatida. „Don Kixot“ ritsar romanlariga parodiya tarzida yozilgan satirik asar ekanligi. Don Kixot va Sancho Pansa obrazlari tahlili.

Molyer – klassitsizm adabiyotining yirik vakili. Ijodiy faoliyatining boshlanishi va dastlabki komediyalari. „Tartyuf“ – „muqaddas zakovat jamiyati“ning kirdikorlarini fosh etuvchi asar sifatida. Tartyuf va Orgon obrazlari tahlili. Molyer qalamiga mansub „Don Juan“ komediyasining o'ziga xos jihatlari.

#### **9-mashg'ulot. Daniel Defoning „Robinzon Kruzo“ romani. Jonatan Sviftning „Gulliverning sayohatlari“ romani tahlili**

„Robinzon Kruzo“ – buyuk kashfiyotlar davri mahsuli. Romanning yaratilishi tarixi. Robinzon obraziga tavsif.

Svift – ma'rifatchilik adabiyotining yirik vakili. „Gulliverning sayohatlari“ romanida satira. Asardagi fantastik vaziyatlar va afsonaviy obrazlar tahlili. Gulliever sayohat qilgan mamlakatlar va Angliya jamiyatidagi mushtarakliklar.

#### **10-mashg'ulot. Hyotening „Faust“ asari tahlili**

Hyote ijodida nemis xalq qo'shiqlarining o'rni. „Mag'rib-u Mashriq“ shoir ijodining cho'qqisi ekanligi. „Faust“ fojiasi. Faust va Mefistofel obrazlariga tavsif. Asarda koinotning qudratli kuchi va inson irodasi masalasi. Hyote asarlarida ilgari surilgan umuminsoniy g'oyalar.

### **11-mashg'ulot. Bayron she'riyati tahlili**

Bayron ingliz romantizm adabiyotining namoyandasi sifatida. Shoir asarlarida lirizm. „Sharq dostonlari“ to'plamining yaratilishi va mavzular ko'lami. „Gyaur“ dostoni tahlili. Gyaur, Leyla va Hasan obrazlariga tavsif. „Don Juan“ dostonida badiiy mahorat masalalari tahlili. Bayron asarlarining tarjimalari.

### **12- mashg'ulot. Balzak ijodi**

Fransuz adabiyoti rivojida Balzakning o'rni. „Insoniyat komediyasi“ epopeyasining yaratilishi. „Gorio ota“ romanida otalar va bolalar munosabati. Qirol Lir va Gorio ota obrazlarining qiyosiy tavsifi. „Sag'ri teri tilsimi“ asari tahlili. Asarda ko'tarilgan azaliy va abadiy muammolar hamda XIX asr fransuz jamiyatidagi illatlar.

### **13-mashg'ulot. Frederik Stendalning „Qizil va Qora“ asari tahlili**

Stendal ijodida tanqidiy realizm. Romanning yaratilish tarixi va nomlanishidagi ramziylik. Asar qahramonlariga tavsif. Jyulyen Sorel – murakkab obraz sifatida. Asarda ilgari surilgan g'oyalar. Jamiyat va shaxs muammolarining badiiy talqini.

### **14- mashg'ulot. Gi de Mopassan asarlari tahlili**

Mopassan – novella janrining ustasi. Adib asarlarida bosqinchilik urushlarining qoralanishi. „Do'ndiq“ hikoyasi tahlili. „Hayot“ romanida ilgari surilgan g'oyalar. „Azizim“ – jamiyat illatlarini keskin fosh etuvchi asar sifatida. Jorj Dyurua – shaxsiyatparast va xudbin kimsa ekanligi.

### **15- mashg'ulot. Mark Tvenning „Tom Soyerning boshidan kechirganlari“ asari. Jek London ijodi tahlili**

„Tom Soyerning boshidan kechirganlari“ – bolalar dunyosi haqidagi asar. Asarda davr ijtimoiy muhiti tasviri. Tom va Gek Finn obrazlariga tavsif.

Jek London asarlarida inson erki va huquqi masalalari. „Martin Iden“ – avtobiografik asar. Martin Iden va Ruf obrazlari tahlili. „Martin Iden“ va A.Qahhor qalamiga mansub „Sarob“ romanlarining qiyosiy tahlili. Adib hikoyalari tahlili.

### **16- mashg'ulot. Teodor Drayzerning „Amerika fojiasi“ asari**

„Amerika fojiasi“ XX asr muammolari haqidagi monumental asar. Romanda ilgari surilgan oilaviy, ijtimoiy, psixologik muammolar. Asar obrazlar galereyasi tahlili.

### **17- mashg'ulot. Robindranat Thokur va Ernest Xeminguey ijodi tahlili**

Thokur – „Sharq va G'arbni yaqinlashtirgan figura“. „Gitanjali“ she'rlar to'plamining yaratilish tarixi va mavzular ko'lami. Adibning hikoyanavislik mahorati. „Halokat“ romani tahlili. Roman qahramonlariga tavsif. Thokur romanlarida milliy kolorit tasviri.

Xeminguey ijodida urushga nafrat tuyg'usining kuchliligi. „Alvido qurol“ romani adib ijodining muhim bosqich ekanligi. „Chol va dengiz“ qissasida inson irodasining qudrati masalasi. Chol Santyago obraziga tavsif. Yozuvchining badiiy mahorati.

### **Seminar mashg'ulotlarini tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

Seminar mashg'ulotlarda talabalar badiiy adabiyot haqidagi bilim va ko'nikmalarini, poetik asarlar tahlili orqali mustahkamlab boradilar. Seminar mashg'ulotlar mavzularining muayyan rejasini va adabiyotlar ro'yxatini talabalarga taqdim qilinadi. Rejada ko'rsatilgan masalalar darslik yoki o'quv qo'llanma hamda ilmiy adabiyotlarga tayanib o'rganish tavsiyasi qilinadi.

Seminar mashg'ulotlari bo'yicha tavsiya etiladigan mavzularni talabalar muayyan adabiyotlardan o'rganib, mashg'ulotga tayyorlanib keladilar.

### **Mustaqil ta'limni tashkil etishning shakli va mazmuni**

Talabaning mustaqil ta'limi «Jahon adabiyoti» fanini o'zlashtirish uchun belgilangan o'quv ishlarining ajralmas qismi bo'lib, u metodik va axborot resurslari bilan ta'minlanadi hamda bajarilishi reyting tizimi talablari asosida nazorat qilinadi. Talaba mustaqil ishining asosiy maqsadi o'qituvchining rahbarligi va nazorati ostida muayyan o'quv ishlarini mustaqil ravishda bajarish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishdir.

Mustaqil ishni tashkil etishda har bir talabaning akademik o'zlashtirish darajasi va qobiliyatini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalaniladi: ayrim nazariy mavzularni o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish; amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish; nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash; mavzu yuzasidan tahlilga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish; badiiy matnlarga xos xususiyatlarni belgilash va boshqalar. Talaba mustaqil ishini nazorat qilish o'quv mashg'ulotlarini olib boradigan o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladi. Talaba uchun fan bo'yicha mustaqil ish topshiriqlari tegishli kafedra professori tomonidan o'quv mashg'ulotini bevosita olib boruvchi o'qituvchi bilan birgalikda tuziladi, hamda kafedra mudiri tomonidan tasdiqlanadi.

Mustaqil ishni bajarish uchun talabaga axborot manbasi sifatida darslik va o'quv qo'llanmalar, metodik qo'llanma va ko'rsatmalar, ma'lumotlar to'plami va banki, ilmiy va ommaviy davriy nashrlar, internet tarmog'idagi tegishli ma'lumotlar, berilgan mavzu bo'yicha avval bajarilgan ishlar banki va boshqalar xizmat qiladi. Mustaqil ishda taniqli jahon adiblarining nasriy yoki nazmiy asarlarining badiiy xususiyatlari tahlil qilinadi. Mustaqil ish A-4 formatdagi qog'ozda 10 betdan kam bo'lmasligi talab qilinadi.

#### **Mustaqil ta'lim uchun mavzular**

1. Eng qadimgi Sharq adabiyotiga xos xususiyatlar.
2. Shumer adabiyoti.
3. "Gilgamish" eposida hayot va o'lim muammosi.
4. Qadimgi hind adabiyoti.
5. Yunon adabiyotining shakllanish davrlari.
6. Yunon adabiyotida dramaturgiyaning paydo bo'lishi.
7. Ellinizm va Rim hukmronligi davri yunon adabiyoti.
8. Rim adabiyoti. Respublika davri Rim adabiyoti.
9. O'rta asrlar adabiyoti.
10. Ritsar-kurtuaz adabiyotining o'ziga xos jihatlari.
11. Angliyada uyg'onish adabiyoti.
12. Fransiya va Ispaniyada uyg'onish davri adabiyoti.
13. XVII asr klassitsizm adabiyoti.
14. Romantizm adabiyoti.
15. Fransiyada tanqidiy realizm adabiyoti.
16. Ingliz va nemis tanqidiy realizm adabiyoti.
17. XIX asr oxiri va XX asr boshlari adabiyoti.
18. XX asr boshlarida Amerika adabiyoti.
19. Fenimor Kuper ijodiy merosi.
20. Ekzistensializm adabiyoti.
21. Alber Kamyuning "Begona" romani.
22. XX asr Lotin Amerikasi adabiyoti.
23. Gabriyel Garsia Markes ijodi.
24. Nobel mukofotini olgan adiblar va "Jahon adabiyoti" jurnali.

#### **Fan dasturining informatsion-uslubiy ta'minoti**

##### **Didaktik vositalar**

- **jihozlar va uskunalar, moslamalar:** elektron doska-Hitachi, LCD-monitor, elektron ko'rsatkich (ukazka).

- **video-audio uskunalar:** video va audiomagnitofon, mikrofon, kolonkalar.

- **kompyuter va multimediali vositalar:** kompyuter, Dell tipidagi proyektor, DVD-diskovod, Web-kamera, video-ko‘z (glazok).

### **Foydalaniladigan asosiy darslik va o‘quv qo‘llanmalar, elektron ta’lim resurslari hamda qo‘shimcha adabiyotlar ro‘yxati**

#### **Rahbariyat adabiyoti**

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –T.: O‘zbekiston, 2016.
2. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. –T.: O‘zbekiston, 2017.
3. „Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari“ to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori (Xalq so‘zi, 2017- yil, 21- aprel).
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining „O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi“ to‘g‘risidagi Farmoni (Xalq so‘zi, 2017- yil, 8- fevral).
5. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. –T.: O‘zbekiston, 2017.
6. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008.

#### **Asosiy adabiyotlar**

1. Boynazarov F. Jahon adabiyoti. – T.: Musiqa, 2006.
2. Normatova Sh. Jahon adabiyoti. – T.: O‘qituvchi, 2008.
3. Quronov D va b. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – T.: Akademnashr, 2010.
4. The Norton Anthology of World literature Shorter Edition. Ronald Goltesman, Laurens B.Holland, David Kalstone, Francis Murphy, Hershel Parker, William A. Pritchard W.W. Norton and company. New York, London. 2009-2012.
5. World Book Encyclopedia. Chicago, London, Sydney. Toronto: A Scott Fetzer Company. 1995. 26 volumes.
6. Aristotel. Poetika. –T.: Yangi asr avlodi, 2011.
7. Alimuhamedov. Antik adabiyot tarixi. –T.: O‘qituvchi, 1969.
8. Gegel. Estetika. –T.: Sharq yulduzi jurnali, 1-6- sonlar, 2014.
9. Крамер С. История начинается в Шумере. –М.: Наука, 1991.
10. Kun. –T.: O‘zbekiston, 2013.
11. Zivotov Z. Shumerlar va Turon qavmlari. –T.: Mumtoz so‘z, 2012.
12. Siddiqov A., Qosimov A. Jahon adabiyoti. Farg‘ona, 2015.
13. Hamdamov U., Qosimov A. Jahon adabiyoti. –T.: „Barkamol fayz Mediya“, 2017.

#### **Qo‘shimcha adabiyotlar:**

1. Jahon adiblari adabiyot haqida. To‘plovchilar M.Sharafutdinova, Sh.To‘ychiyeva. – T.: Ma’naviyat, 2010.
2. Sulaymonova F. Sharq va G‘arb. T.: O‘zbekiston, 1997.
3. Komilov N. Tafakkur karvonlari (Sharq-u G‘arbning sivilizatsiyaviy aloqalari). – T.: Sharq, 2011.
4. Rashidov A. Ch.Aytmatovning badiiy olami. – T.: O‘zbekiston, 2008.
5. Rashidov A. Lesya Ukrainka (adabiy portret). – T.: Sharq, 2010.
6. Jalilov S. Bobir va Yuliy Sezar. – T.: Yangi asr avlodi, 2001.
7. Do‘stmuhamedov Q. Nobel mukofotini olgan adiblar. – T.: Ma’naviyat, 2002.
8. Sitseron. Notiqlik san’ati haqida ikki risola. – T.: Yangi asr avlodi, 2007.
9. Jo‘raqulov U. Hududsiz jilva. – T.: Fan, 2006.
10. Hamdam U. Yangilanish ehtiyoji. – T.: Fan, 2007.
11. Ch.Aytmatov, M.Shoxonov. Ch o‘qqida qolgan ovchining ohi-zori – T.: Sharq, 1998.
12. „Jahon adabiyoti“ jurnali. 1997-2018 yillardagi sonlari.
13. Belinskiy. Adabiy orzular. –T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1977.
14. Azizov Q., Qayumov O. Chet el adabiyoti tarixi. (XVIII-XX asrlar). -T.: O‘qituvchi, 1987.
15. Quronov D., Rahmonov B. G‘arb adabiv-tanqidiy tafakkuri tarixi ocherklari. –T.: 2008.

16. Saidov U. Sharq va G'arb: madaniyatlar tutashgan manzillar. -T.: Yangi asr avlodi, 2009.
17. Xolbekov M., XX asr modern adabiyoti. -T.: Mumtoz so'z, 2014.
18. Boltaboyev H., Mahmudov M. Adabiy-estetik tafakkur tarixi. 2 jildlik. -T.: Mumtoz so'z, 2013-2016.

#### **Badiiy adabiyotlar:**

1. Bilgamish. (Ziyotov Z. Shumerlar va Turon qavmlari). -T.: Mumtoz so'z, 2012.
2. Gomer. Iliada. -T.: O'zbekiston, 2013.
3. Firdavsiy. Shohnoma. -T.: Adabiyot va san'at, 1984.
4. Dante. Ilohiy komediya. -T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2000.
5. Servantes. Don Kixot. -T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1990.
6. Gyote. Faust. -T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1994.
7. Shekspir. Saylanma. 3 jildlik -T.: Fan, 2007.
8. Navoiy A. Lison ut tayr. -T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2015.
9. Radiy Fish. Jaloliddin Rumi. -T.: Yangi asr avlodi, 2016.
10. Balzak. Gorio ota. -T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1998.
11. Stendal. Qizil va Qora. -T.: O'zbekiston, 1986.
12. Mopassan. Novellalar. -T.: O'qituvchi, 1987.
13. Pushkin. Yevgeniy Onegin. -T., 1988.
14. Lermontov. Zamonamiz qahramoni. - T.: O'zbekiston, 2016.
15. Gogol. Revizor. -T.: O'qituvchi, 1974.
16. Turgenev. Otalar va bolalar. -T.: Yangi asr avlodi, 2015.
17. Tolstoy. Tirilish. 5 tomlik. 5-tom. -T., 1978.
18. Dostoyevskiy. Jinovat va jazo. -T., 1977.
19. Chexov. Tanlangan asarlar. 3 tomlik. 1-tom. -T.: O'zbekiston, 1957.
20. Usta va Margarita. -T.: Sharq, 2008.
21. Xeminguey. Chol va dengiz. -T.: Yosh gvardiya, 1986.
22. Jek London. Martin Iden. -T.: Yangi asr avlodi, 2015.
23. Gabriel Garsia Markes. Yolg'izlikning yuz yili. -T.: Sharq, 2005.
24. Poelo Koelo. Alkimyogar. -T.: Yangi asr avlodi, 2005.
25. Kafka. Jarayon. -T.: Sharq, 2015.
26. Kamyu. Begona. - T.: Yozuvchi, 1995.
27. Jeyms Joys. Navqiron san'atkorning yoshlikdagi siyrati. -T.: Akademnashr, 2014.
28. Hesse H. Cho'l bo'risi. -T.: Sharq, 2006.
29. Aytmatov Ch. Qiyomat. -T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1989.
30. Nodar Dumbadze. Abadivat qonuni. - T.: Sharq, 2006.
31. Robindranat Tagor. Hikoyalar. -T.: O'qituvchi, 2004.
32. Kobo Abe. Yashik odam. -T.: O'qituvchi, 2017.
33. Somersset Moem. Oy va sariq chaqa. -T.: Davr Press, 2012.
34. Ekzupyeri. Kichkina shahzoda. -T.: Yangi asr avlodi, 2017.
35. Jan Dominik Bobbi. Skafandr va kapalak. Jahon adabiyoti jurnali 12-son. -T., 2017.

#### **Elektron ta'lim resurslari:**

1. [www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)
2. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)
3. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
4. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)
6. [www.o'zbekadabiyoti.com](http://www.o'zbekadabiyoti.com)
7. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com)
8. [www.e-adabiyot.uz.jahon](http://www.e-adabiyot.uz.jahon)
9. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com)
10. [www.library.ru.3](http://www.library.ru.3)

